

“O‘RGATIB-O‘RGANAMIZ” LOYIHASI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi misolida zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikning pedagogik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijodiy faoliyat, zamonaviy ta’lim, interaktiv metodlar, ustoz-shogirdlik, pedagogik tajriba, talaba va o‘quvchi hamkorligi, mustaqil fikrlash, kasbiy rivojlanish.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat tayyor bilim egasi sifatida shakllantirish, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham talab qilmoqda. Xususan, san’at va ijodiy faoliyatga oid fanlarda bu jarayon yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi zamonaviy ta’limda interaktiv yondashuvlar, shaxsga yo‘naltirilgan metodlar va mentor-ustozlik tamoyillari asosida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali model sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur loyiha doirasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ikki tomonlama o‘zaro ta’sir, ya’ni “o‘rgatib o‘rganish” jarayoni shakllanadi. Bunda pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki hamkor, yo‘lboshchi va hamijodkor sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchi esa o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, mustaqil izlanish, kashfiyot qilish, o‘z nuqtai nazarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat esa ijodiy fikrlash, tasviriy san’at, teatr, adabiyot kabi sohalarda o‘quvchilar salohiyatini ochishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rgatish jarayonini ikki tomonlama faoliyat sifatida ko‘radi. Shu nuqtai nazardan, “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi o‘zining mazmunan va metod jihatdan yangicha yondashuvi bilan ajralib turadi. Loyiha asosida talaba yoshlar o‘z ustozlaridan olgan nazariy va amaliy bilimlarni maktab o‘quvchilari bilan bo‘lishar ekan, bu jarayonda ular nafaqat o‘zlashtirganlarini mustahkamlashadi, balki pedagogik faoliyatga real qadam qo‘yish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Ushbu yondashuv zahirida mashhur pedagoglar — J. Dewey, L. Vygotskiy, va A. Komenskiylarning o‘quvchi subyektivligini kuchaytirish, faol tajriba asosida o‘rganish, ijtimoiy va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish haqidagi g‘oyalari

mujassam. Ayniqsa, Vygotskiy ilgari surgan “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi talabalar tomonidan o‘quvchilarga o‘zlashtirilgan bilimni yengil va qiziqarli usullar orqali yetkazishga xizmat qiladi.

“O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi doirasida olib borilgan amaliy faoliyatlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalar tomonidan o‘rgatilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirdi, balki ularning ijodiy fikrlashini, estetik didini va ishtiyoqini sezilarli darajada kuchaytirdi. Talabalarning o‘quvchilarga yo‘naltirilgan darslari orqali o‘zaro ishonch, muloqot va qiziqish muhiti vujudga keldi. Ayniqsa, tenglar orasidagi muloqotga yaqin bo‘lgan pedagogik yondashuv o‘quvchilarning erkin fikrlashiga, savol berishiga, yangilik qilishiga katta imkon yaratdi.

Tahlil davomida quyidagi asosiy natijalar kuzatildi:

- Ijodiy faollikning ortishidan dars jarayonlarida qatnashgan o‘quvchilarning ko‘pchiligi mustaqil ishlashga, tasviriyl faoliyatda o‘z g‘oyasini ifodalashga harakat qila boshlagan;

- O‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyaning kuchayishi bilan talabalar tomonidan tashkil etilgan interaktiv va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirgan;

- Talabalarda mas’uliyat va kasbiyl ko‘nikmaning rivojlanishi asnosida o‘z bilimni boshqalarga o‘rgatish jarayoni orqali talabalar pedagogik yondashuvni chuqurroq o‘zlashtirib, o‘z faoliyatiga tanqidiyl nazar bilan qaray boshlagan;

- Hamkorlik va ustoz-shogirdlik ruhining mustahkamlanishi orqali loyiha davomida talabalar va ularning ustozlari o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik kuchayib, bu tajriba talabalarni bo‘lajak pedagog sifatida shakllantirishga xizmat qilgan.

“O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi ta’lim jarayoniga innovatsion va samarali yondashuv sifatida qaralmoqda. Loyiha asosida talabalar ustozlardan olgan bilim va ko‘nikmalarini maktab o‘quvchilariga yetkazish jarayonida o‘z pedagogik salohiyatlarini mustahkamlash barobarida, o‘quvchilarda ham ijodiy faollik, qiziqish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu ikki tomonlama o‘quv jarayoni pedagogik amaliyotda samarali natijalar bermoqda.

Tadqiqot davomida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

- Talaba–o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirli pedagogik jarayon ijodiy salohiyatni rivojlantirishda samarali platforma bo‘la oladi;

- O‘quvchilarga teng yoshdagi shaxs tomonidan dars o‘tilishi ularning qiziqishini oshirib, o‘zini erkin ifoda etishiga zamin yaratadi;

- Talabalar uchun o‘z bilimni o‘rgatish imkoniyati — kasbiyl o‘sish va mas’uliyat hissining shakllanishiga sabab bo‘ladi;

- Ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan interaktiv darslar o‘quvchilarda faollik, mustaqillik va san’atga mehr uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonov, X. E. (2024). *Klaster usuli orqali tasviriy san'at ta'limini integratsiyalash imkoniyatlari*. Zamonaviy Ta'lim / Sovremennoe Obrazovanie, 137(4), 31–41. Nashr etuvchi: ALFRAGANUS University bilan hamkorlikda.
2. Бердиев, Д. (2023). Кластер ёндашувига асосланган ўқитувчиликнинг талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашдаги аҳамияти. *International scientific and practical conference on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, 1(01).
3. Sultonov, X. E. (2024). *Klaster yondashuvi orqali tasviriy san'at ta'limida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash imkoniyatlari*. San'atshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar // Respublika ilmiy-nazariy konferensiya to'plami, 1(1), 100–110. T.: O'zDSMI.
4. Sultonov, X. E., & Berdiev, D. A. (2022). *Tasviriy san'atda klaster yondashuvi sifatida STEAM ta'limini tatbiq etish*. Internauka: Ilmiy jurnal, 2(15[238]), 13–15. Izdatel'stvo "Internauka".
5. Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(18), 187-193.